

## **BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIGA INTEGRATSION DARSLARNING AHAMIYATI VA UNI AMALIYOTGA QO'LLASH TAMOYILLARI**

### **THE IMPORTANCE OF INTEGRATED CLASSES IN PRIMARY SCHOOL MOTHER TONGUE CLASSES AND THE PRINCIPLES OF ITS PRACTICAL APPLICATION**

Xaitova Nodira Bafoyevna

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar institute o'qituvchisi

#### **Annotatsiya:**

ushbu tezisda boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etishda integratsion ta'limga joriy qilish va uni amaliyotga tadbiq etish, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va o'z ona tilida ravon, aniq gapirishni o'rgatish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ona tili, lingistik, integratsiya, kompetensiya, nutq, til, lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya.

**Annotation:** this thesis talks about the introduction of integrated education and its implementation in the organization of elementary school mother tongue classes, widening the worldview of pupils and teaching them to speak fluently and accurately in their mother tongue.

**Key words:** mother tongue, linguistic, integration, competence, speech, language, linguistic competence, speech competence.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llarini va vositalarini, ona tilini egallah, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish imkonini beradi. Bu fan orqali o'quvchilar borliqni, atrofdagi voqeа-hodisalarни ongli ravishda tafakkur qilishni, turli muammoli masalalarini, ziddiyatlarni oqilona tahlil qilishni va atrofda sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarga o'z munosabatini bildirishni o'rganadi. Ona tili maktab oldiga qo'yilgan ta'limiylar va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, Shu



## Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1<sup>st</sup> June - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi.

Ona tili darslarini tashkil etishda, zamonaviy fan va texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, zamonaviy ta'lim dasturlari, interfaol metodlar va didaktik o'yinlar hamda kreativ tayyorlangan tarqatma materiallar orqali ta'lim tizimini tashklil etish va uni amaliyotga tadbiq etish, o'quvchilarning o'zlashtirayotgan bilimlar ko'lамини yanada kengaytiradi, eng so'nggi fan yutuqlaridan xabardor qiladi, eng muhimi, o'quvchini mustaqil hayotga tayyorlash va u orqali kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini integratsiya qilish zamonaviy ta'lim tizimidagi eng ilg'or tajribalarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Didaktik tizimda predmetlar asosida integratsiyalash o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Har ikki faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat.

1. Maqsadli bosqichda o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi. O'quvchilar o'qituvchi boshchiligidagi predmetlararo bog'liqliklami tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlami tanlab olishlari, bunda ular o'z e'tiborlarini faqat umumiy bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki ko'chirish, tahlil qilish, shaxsning belgilari, qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2. Isbotlash bosqichida o'qituvchi o'quvchilaming dunyoqarashini o'stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag'batlantiradi. O'quvchilar o'z irodalari, dunyoqarashni kengaytuvchi bilimlarga qiziqishga yo'naltiriladi.

3. Faoliyatning mazmun bosqichida o'qituvchi yangi o'quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion daliillar, tushunchalar, muammolar majmuyi darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O'quvchilar umumpredmetli tushullcha, muammolami umumiy bilimlar darajasida o'zlashtiradi.

4. Vositalar tanlash bosqichida o'qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko'rgazmali vositalarni - darsliklar, jadvallar, sxemalar savolnomalar, amaliy vazifalar. O'quvchilar ko'chirish, umumlashtirish, biriktirish xarakterlarini integratsion masalalami hal qilishda ko'rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.



## Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1<sup>st</sup> June - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

5. Keyingi bosqich - natija. O'qituvchi ta'lif berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani am alga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi. O'qituvchi bilimlar tizimida umumlashtirishini amalda qo'llaydi.

6. Nazorat qilish bosqichida o'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilaming tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida baholaydi.

Ona tili darslariga integratsion yondashish ko'zlagan maqsadni va samarani beradi. O'quvchilarni optimallashtirilgan bilimlar bilan qurollantiradi. Boshlang'ich sinflarda o'quv faoliyati ko'rgazmali tashkil etiladi; ko'rgazmali qurollar, tarqatma materillar va didaktik o'yinlar. Shu o'qitish vositalari orqali ona tili fani bevosita va bilvosita boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o'rgatiladi.

Ta'lif berish (didaktika)ning asosiy tamoyillari quyidagilar:

Faollik tamoyili Inson ta'lif olishining haqiqiy, chinakam mohiyati o'zining aqliy faoliyati natijasida bilimning yangiyangi sirasrorlarini mustaqil ravishda anglab olishidir. Talaba, o'quvchi o'z harakati bilan fanlarni yaxshiroq o'rganadi va o'zlashtiradi. O'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ularning o'zlari fanga qiziqsin, uni bilishga harakat qilib, intilsin. Buning uchun o'quvchitalabalar darsga faol qatnashishi lozim.

Nazariya bilan amaliyotning birbiri bilan bog'liqligi Nazariy bilim doim kasbhunar amaliyoti bilan bog'lanishi lozim. Amaliy ta'lif ham o'z navbatida nazariy bilimlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Ko'rgazmalilik Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin tarzda taqdim etish tilning tushunarligini va ta'lif jarayonida audiovizual vositalardan foydalanishni, bevosita ish holatida va real ob'ektlarda o'qitishni talab qiladi. Darslar ko'rgazmali qurollar yordamida berilsa, o'quvchilarning o'zlashtirishlari osonlashadi.

Tushunarlik O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, o'quvchilar uni o'zlaridagi bilimlar bilan bog'lay olishsin va uni tushunishda qiynalmasin. Ya'ni, o'quv materialining mazmuni, shuningdek, o'qituvchining tili va fikrlarini ifodalash usuli o'quvchitalabaning bilim saviyasiga mos kelishi lozim. Lekin bu ilmiy terminlardan foydalanilmaydi, degani emas.

Namunalardan foydalanish O'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim namunalarni tanlashga harakat qilish kerak. Yaxshi model, amaliyotdan



olingan tipik misollar, turlicha mahsulotlar ham olingan natijaning sifati qanday bo'lishini aniq ko'rsatadi.

Ilmiylik O'quv materialining mazmuni haqiqiy va ilmiy jihatdan tasdiqlangan yoki ilmiy tadqiqotlar asosida sinalgan bo'lishi kerak. Shuningdek, fanning yangi yutuqlari va kashfiyotlarini o'zida aks ettirishi lozim. O'qituvchining taxminiga yoki sub'ektiv fikriga asoslangan material qo'llanilmasligi kerak.

Bilimlarni qo'llash O'quvchitalabalar olgan bilimlarini amalda qo'llay olishi kerak. Shuning uchun bu bilimlar qo'llanilgan va amaliy vaziyatda sinalgan bo'lishi zarur. Bunday amaliy vaziyatlar o'qituvchi tomonidan yaratilishi lozim.

Natijalarni mustahkamlash tamoyili O'qishdagi muvaffaqiyatlar tan olinishi va baholanishi kerak. Bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida doimiy aloqa bo'lismeni talab qiladi. Natijalar esa maxsus «Baholash varaqalari» da qayd qilinishi kerak. Didaktik tamoyillar o'qituvchi faoliyatining yo'lyo'rig'i sifatida hizmat qiladi, alohida olganda esa tushunarilik printsipini qo'llab quvvatlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf ona tili darslarini integratsiya qilish va uni amaliyatga joriy qilish o'quvchilarga optimallashtirilgan bilimlarni, zamonaviy fan va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lish imkonini beradi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. “Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi.
2. K.Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshken-Bayoz. 2022
3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, N.Vohidova. Pedagogika tarixi va nazariyasi. Toshkent-2010.